



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



Ro'yxatga olindi: № MD-5321100-2.05

2018 yil "21" 11

JAHON ADABIYOTI MUAMMOLARI

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
Ta'lif sohasi:	120000 – Gumanitar fanlar
Mutaxassislik:	5A120101 – Adabiyotshunoslik (O'zbek adabiyoti)

Toshkent – 2018

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 201~~8~~
yil "21" ~~11~~ dagi 5-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yil "7" ~~12~~ dagi ~~1000~~-sonli buyrug'inining 4-ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida ishlab chiqildi va turdosh oliy ta'lim muassasalari bilan kelishildi.

Tuzuvchi:

Jo'raqulov U.

- ToshDO'TAU, "Adabiyot nazariyasi va zamонавијадабија јарон" kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori

Taqrizchilar:

Qahramonov Q.

- Til, adabiyot va folklor instituti etakchi ilmiy xodimi filologiya fanlari doktori, professor

Rasulova U.

- ToshDO'TAU, "Adabiyot nazariyasi va zamонавијадабија јарон" kafedrasi dotsenti filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti o'quv-uslubiy kengashida tavsiya qilingan (2018-yil "22" ~~08~~ dagi "1"-sonli bayonnomasi).

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliv kasbiy ta'lindagi o'rni

Mazkur dastur "Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi" asosida ishlab chiqilgan. Juhon adabiyoti muammolarini o'rganish tarixiy, nazariy poetika nuqtai nazaridan dolzarb masalalardandir. Ushbu fanga oid bilimlarni magistr akademik darajasi talablarini doirasida yetkazib berishda quyidagi masalalarga diqqat qaratish maqsadga muvofiq deb topildi: a) jahon xalqlari madaniy-ma'naviy hayotida muhim o'rinn tutgan adabiy davrlar, adabiy figuralar, nazariy-poetika masalalari; b) eng muhim adabiy oqim va yo'nalishlar; v) yetakchi badiiy obrazlar va ularning o'rni; g) jahon xalqlari adabiyotining falsafiy, badiiy, ruhiy-ma'naviy omillari; d)adabiy turlar va janrlar takomili; ye) adabiy ta'sir masalalari qiyosiy tipologik hamda tadrijiylik prinsiplari asosida talqin etiladi. Eng muhimi, badiiy tahvil, badiiy so'zni tushunish va tushuntirish, badiiy ijodning ichki qonuniyatlarini anglash o'rganilayotgan masalalar markazida turadi.

Ushbu fan doirasida adabiyotshunoslikdagi ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari jalb qilinadi. Jamiatni demokratlashtirish jarayonida va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilishda ushbu fan yoshlarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi va barcha tahvil jarayonlariga ijodiy yondoshishni shakllantirishga yordam beradi.

II. Fanning maqsad va vazifalari

Mazkur fanni o'qitishdan maqsad - jahon adabiyoti namunalarini bir butunlikda, jahoniy poetik tamoyillar asosida o'rganish, milliy adabiyotni boshqa millatlar badiiy tafakkuri bilan mushtarak hodisa sifatida talqin etish, jahon adabiyotining yetuk namoyandalari biografiyasi, adabiy muhiti, poetik mahorati, uslubi, badiiy konsepsiyasi masalalarini o'rganishdan iborat. Ayni maqsadni amalga oshirish uchun namunaviy dastur oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- jahon xalqlari adabiyotining badiiy, tarixiy, falsafiy, ruhiy-ma'naviy omillari haqida **bilimga ega bo'lish**;
- mif va adabiyot munosabati masalasini o'rganish;
- jahon xalqlari madaniy-ma'naviy hayotida muhim o'rinn tutgan adabiy davrlarni o'rganish **ko'nikmasiga ega bo'lish**;
- adabiy oqim va yo'nalishlarning shakllanish tarixi, nazariy-estetik asoslari, adabiy-tarixiy jarayonda tutgan o'rni va ahamiyatini yoritib berish;
- jahon adabiyoti tadrijida sezilarli iz qoldirgan ijodkorlar biografiyasi, asarlari, adabiy muhiti, uslubi va badiiy mahoratini ilmiy talqin etish;
- jahon adabiyotining eng sara namunalarini misolida adabiy turlar va janrlar takomili muammolarini haqida fikr yuritish **malakasiga ega bo'lish**;
- Sharqu G'arb masalalarini qiyosiy-tipologik hamda tadrijiylik prinsiplari asosida talqin etish;
- jahon adabiyoti namunalarining o'zbek tilidagi tarjimalari va adabiy ta'sir masalalariga diqqat qaratish.

III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

I-Modul. Fanning tarixiy-nazariy masalalari

“Jahon adabiyoti muammolari” faniga kirish

“Jahon adabiyoti” istlohi, jahon adabiyoti tushunchasini tashkil etuvchi omillar va mezonlar. Mif va jahon adabiyoti. Davrlashtirish va adabiy davrlarga xos yetakchi jihatlar va muammolar. Adabiy oqimlar va ijodiy metodlar. Jahon adabiyoti tarixining manbaviy qamrovi va tipologiyasi muammolari.

Jahon adabiyoti fanining predmeti manbalari, omillari. Jahon adabiyotini davrlashtirish. Jahon adabiyotining antik davri: qadim Misr, qadim Hind, qadim Xitoy, qadim turkiy tilli adabiyot, qadim yunon adabiyoti. Ularning o‘zaro mushtarak va farqli jihatlari. Jahon adabiyotini o‘rganishning omillari va mezonlari. Jahon adabiyotini o‘rganishda umuminsoniylik, milliylik, individuallik tushunchalarining o‘rnini. Jahon adabiyoti manbalariga tipologik, genetik, tarixiy-madaniy yondashuv. Jahon adabiyotini tipologik o‘rganishda akademik Konrad, Veselovskiy va prof. V.M.Jirmunskiy qarashlari. Zamonaviy adabiyotni tipologik o‘rganish muammolari.

Jahon adabiyotida sinkretizm va mifologiya muammoosi

Mifning badiiy ijodda tutgan o‘rnini. Mifologik maktab: tarixi, vakillari. Aka-uka Grimmarning «Nemis mifologiyasi» asari. Myuller asarlari mifologik talqin. Losevning mifologiyaga doir qarashlari. Mif va falsafa, mif va estetika, mif va din. Mif va mif poetikasi jahon adabiyotini o‘rganishning muhim asosi sifatida. Mifda xaos va kosmos tushunchalari, ularning badiiy adabiyot tarkibida bajaradigan vazifasi. Mifning shakkiali: tabiat, jamiyat, inson, o‘tmish, kelajak, yaratilish va inqiroz haqidagi miflar. Mifologik maktab, mohiyati, asoschilar, metodologik prinsiplari. Mifologik asos, mifologik syujet, mifologik unsur tushunchalari. Ayni tushunchalarning adabiy-tarixiy jarayon bilan munosabati. Mifda xaos va kosmos tushunchalari, uning badiiy adabiyot bilan bog‘liqligi. Frezer talqinida mif. Zamonaviy adabiyotda mif (G.Markes, J.Joys, S.Bekket). Ye.Meletinskiyning “Mif poetikasi” kitobida mif va zamonaviy roman masalalari talqini.

Qadimgi davr adabiyotida epos muammoosi

Sharq va G‘arb adabiyotining eng qadimgi davri: sinkretizm va qiyosiy-tipologiya masalasi. Davrga xos adabiyotning geografik hududlari, xronologiyasi. Antik davr eposi: “Bilgamish(Gilgamesh)”, “Ramayana”, “Maxabxarata”, “Iliada”, “Odisseya”, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Manas” asarlaringin mazmuni va poetik o‘ziga xosliklari. Antik lirika janrlari. She’riy vaznlar masalasi. Antik drama: Esxil, Sofokl, Yevripidlar ijodi. Tragediya, komediya janrlarining antik namunalari. Tragediyaning rivoiy, madaniy-tarixiy va nazariy asoslari. Antik davr didaktikasi. Sharq va G‘arb didaktikasining umumiy hamda xususiy jihatlari. Didaktik talqinda shaxs, zamon va axloqiy omillarning o‘rnini. Gesiodning «Mehnat va kunlar» asari.

Antik davrda drama muammoosi

Tragik janr. Tragediyaning rivoiy, falsafiy, psxologik va nazariy omillari. Esxil, Sofokl, Yevripid. Sofoklning «Shoh Edip» tragediyasida obrazlar tizimi. Edip «gunohi»ning jahon adabiyotshunosligida talqin etilishi. Asarda tragik vaziyatlarning o‘ziga xosligi. Yunon komediya:komediya va komizm masalasi. Aristofan komediyalari. Attika davri komediyalari: Menandr ijodi. Sharq xalqlari dramasi: o‘zbek xalq teatri (masxara) va jahon dramasi.

Badiiy, tarixiy va falsafiy proza muammoosi

Qadim yunon romanichiligi. Spesifik xususiyatlari va obrazlar tabiatini. Gerodotning «Tarix» asarida voqelikka real yondashuv. Uning o‘z davrida yaratilgan boshqa tarixiy asarlardan farqi. Platonning «Qonunlar» kitobida dialogning o‘rnini. «Davlat» asarida jamiyatni toifalash masalalari. Platon asarlarida «Yalang‘och daho» obrazi va uning prototipi. Platonning ideal haqidagi tushunchalari. Aristotelning «Metafizika», «Poetika» asari. Mimesis nazariyasi. Adabiy tur va janrlar masalasi. Epos va drama haqida muammolari. Uslub masalasi. Aristotel Forobiyal talqinida. Forobiyning adabiy-estetik qarashlarida G‘arb poetika ilmi masalalarining aks etishi.

Rim adabiyoti: epos, komediya, komik obraz va komizm muammoosi

Plavt va uning «Xumcha», «Maqtanchoq jangchi» komediyalarida komik obrazlar talqini. «Xumcha» asari va o‘zbek adabiyotida xasis obrazi. «Oltin devor»da komiklik va Plavtning «Xumcha» asari. Progopolinik komik obraz sifatida. Vergiliy ijodi. «Eneida» asarining yaratilishida Avgust siyosatining o‘rnini. Vergiliyning ijtimoiy qarashlari. «Eneida» asarining Gomer ijodi bilan munosabati. Asarning ijtimoiy mohiyati. «Eneida»da mifologik talqin. Ovidiyning «Qahramon ayollar», «Metamorfozalar» asarlarida real voqelik va mifologik talqin uyg‘unligi.

Jahon adabiyoti tarixida o‘rta asrlar adabiyoti muammoosi

O‘rta asrlar adabiyoti tushunchasi, uning Sharq va G‘arb adabiyotida tutgan o‘rnini. O‘rta asrlar G‘arbiy Yevropa eposi: «Roland haqida qo‘schiq», «Sid haqida qo‘schiq», «Nibelunglar haqida qo‘schiq» asarlari, ularda Sharq mavzusi talqini. Kelt xalqlari sagalari. Sagalarning yaratilishi: druidlar va flidlar. Sagalar strukturasi, mavzu doirasasi. Sagalarda Sharq motivlari. Sagalarning cherkov xodimlari tomonidan yozib olinishi. Sagalarda diniy, xurofiy va magik unsurlar. O‘rta asrlar yozma adabiyoti. Lirika va uning mavzular ko‘lami. Lirik uslubdagi o‘zgarishlar. Kurtuaz lirikasi. O‘rta asrlar dramasi, Antik drama bilan umumiyligi va farqli jihatlari. Bu davr dramasida «Injil» rivoyatlarining o‘rnini. Sahna talqinidagi o‘ziga xosliklar: sahna, dekoratsiya, aktyorlar, makon va zamon masalalari. Liturgik drama

tushunchasi. Misteriyalar. Ritsar romanchiligi. Ritsar romanlarining syujet qurilishi. Ritsar romanlarida sarguzasht va fantaziyaning ahamiyati, ularning folklor asarlari bilan munosabati.

2-modul. Jahon adabiyotida estetik tafakkur yangilanishi muammosi

Jahon uyg'ونish adabiyoti muammosi (umumnazariy masalalar)

Geografik, xronologik chegaralari. Falsafiy, estetik, poetik, ijtimoiy, ma'naviy omillari. Sharq va G'arb uyg'ونishi muammosi: mushtarak va umumiy jihatlari. Ushbu muammoning jahon adabiyotshunosligida talqin etilishi. Sharq va G'arb Uyg'ونish adabiyotining mushtarak va farqli jihatlari.

Italyan Renessans estetikasi va Dante

Falsafiy, estetik va ijtimoiy omillar. Falsafiy va ijtimoiy konsepsiylari: «Gumanizm», «universal odam», «xotin-qizlar emansipatsiyasi» masalalar. Uyg'ونish davri adabiyotining estetik va adabiy kriteriyalari: realistik talqin, obrazlar prototipliligi, peyzaj va h.k. Dante biografiyasida o'sha davr Italiya ijtimoiy muhitining o'rni. Dante ijodining ilk davri. An'anaviy lirika. «Yangi hayot» Dante lirikasining yangi bosqichi sifatida. Asarning mazmuni va strukturası. «Bazm», «Monarxiya xaqida» asarlari. «Xalq tili haqidə» Dante estetik qarashlari va filologik nuqtai nazarining in'kosi sifatida. «Ilohiy komediya» asarining o'rganilishi masalasi. Asar ilmiy, badiiy, falsafiy asoslarining shakllanishida Sharq badiiy tafakkurining o'rni. Dante va Navoiy. Dante va Bokkachcho. Dante va Petrarka ijodi.

Ispan Uyg'ونish adabiyoti muammosi va Servantes

Ispan Uyg'ونishining milliy va antik asoslari. Ispaniya adabiy-ijtimoiy hayotida O'rta asrchilik an'analari. Bu davr adabiyotida epos, lirika, drama va folkloрning o'rni. Migel de Servantesning hayot yo'li va ijodi. «Don Kixot» jahon adabiyotining yuksak namunasi sifatida. Asarning ijtimoiy, milliy va biografik omillari. Asarning ritsar romanlari bilan munosabati. «Don Kixot»da telba, qiziqchi va ayyor obrazlari. Don Kixot va real voqelik aro nomutanosiblik. Romanning fojaviy qirralari. Roman haqida bildirilgan fikr-mulohazalar.

Rable va fransuz uyg'ونish adabiyoti muammosi

15-16 asrlar Fransiyada ijtimoiy muhit. Falsafiy qarashlar xilma xilligi. Diniy qarashlarda mutaassiblik. Uyg'ونish davri fransuz lirikasi, eposi va dramaturgiyasi. Fransua Rable biografiyası va ijodi. «Gargantuya va Pantagryuel» asari. Asarda kinoya va komiklik. Tragik-komik talqin va «Gargantuya va Pantagryuel» asari. Asar strukturasingin poetik mazmuni ochishdagi ahamiyati. Asardagi obrazlar tizimi. Asarda makon va zamon masalasi. Asar syujetining

o'ziga xosligi. Asar uslubiy xususiyatlari. M.Baxtin tadqiqotlarida Rable ijodi talqini. Roman talqinida xalq kulgu madaniyatining o'rni.

Ingliz Uyg'ونish adabiyoti va Shekspir poetikasi

Ijtimoiy, falsafiy va estetik qarashlardagi yangilanishlar. Uyg'ونish davri ingliz lirikasi, eposi va dramasi. Adabiy muhit. K.Marlo ijodi. Dramaturgiya va teatrchilik. Globus teatri. Vilyam Shespirning hayot yo'li. Shespir ijodida lirika. Sonetlari. Dramaturgiyasi. Shekspir drama asarlarini davrlashtirish. Shekspir dramalarida komiklik. Shekspir tragediyalarida qahramon, voqelik, vaziyat, ramzlarining o'rni. Shekspir tragikomediyalari. «Qirol Lir»da masxara obraz. Asarda «Otalar va bolalar» muammosi talqini. Asar syujetida peyzaj unsurlarining psixologik vazifasi. Tragik obrazlar (Qirol Lir, Edgar) talqinida muallif pozitsiyasi. «Qirol Lir»da «katarsis». Shekspir va Tolstoy, Shekspir va Sharq badiiy tafakkuri. «Gamlet» tragediyasida tragik qahramon talqini. Shekspir va Navoiy.

XVII asr nemis adabiyotida urush mavzusi va “urush odami” obrazi

XVII asr nemis adabiyotida urush mavzusi talqini. 1618-1648 yillarda bo'lib o'tgan urushning Yevropa xalqlari ma'naviy, ijtimoiy hayotida tutgan o'rni. Ayni voqealarning badiiy adabiyotda aks etishi. Nemis yozuvchisi Martin Opis(1597-1639)ning ijtimoiy-adabiy faoliyati. Uning «Nemis poeziyasi haqida» deb nomlangan kitobida urush izdan chiqargan milliy ma'naviyatni tiklash masalasining aks etishi. Bunda nemis xalqi folkloridan, Antik davr madaniyatidan foydalanan haqidagi fikr-mulohazalar. XVII asr nemis adabiyotida urushni qoralash mavzusi.

XVII-XVIII asrlar adabiyotida adabiy oqimlar muammosi

Bu davr adabiyotining turli adabiy-falsafiy qarashlarga boy ekanligi. Turli adabiy oqim va yo'nalishlarning maydonga kelish sabablari. Ularning falsafiy va estetik omillari. Ijtimoiy hayotdagи o'zgarishlar va adabiyot. XVII-XVIII asrlar G'arbiy Yevropa adabiyotida o'zarо va tashqi ta'sirlarning ahamiyati.

XVII asr Ispan adabiyoti: klassitsizm, barokko va konseptizm

Bu davr ispan adabiyotida uch adabiy yo'nalish: Uyg'ونish realizmi, klassitsizm, barokko. Uyg'ونish realizmi va Lope de Vega ijodi. «Qo'zibuloq» realistik asar sifatida. Asarning syjeti, obrazlari. Veganing estetik qarashlari. Klassitsizm estetikasining inkori, pesa strukturasi haqida mulohazalar. Sonetlari, epik dostonlari. Ispan klassitsizm adabiyoti. Bu adabiyotning milliy ruhi va xalq maishiy hayoti bilan birikib ketganligi. Barokko oqimi:uning antik asoslari, o'tmish adabiyotini kult darajasiga ko'tarish, adabiyot xoslar uchun g'oyasi. Gongoro ijodi. Konseptizm estetikasi. Alonso Ledisma, Luis de Gevara, Baltasar Grassmanlar ijodi.

Fransuz klassitsizmi: falsafiy, ijtimoiy va adabiy-estetik omillari

Fransiyada klassitsizm estetikasi va milliy madaniyat konsepsiyasi. Fransuz klassitsizmining falsafiy-esetik asoslari. (Dekart, Per Gassendi, Molerb, Bualo qarashlari). Kornel, Rasin, Molerlar ijodida klassitsizm an'analari. Klassitsizm estetikasining asosiy tamoyillari: uch birlik, adabiy janrlar masalalari. Fransuz klassitsizmining boshqa Yevropa xalqlari adabiyotiga ta'siri. Sharq va G'arb klassitsizmi qiyosi: umumiy va farqli jihatlar.

XVIII asr Yevropa ma'rifatchilik adabiyotining ijtimoiy-falsafiy va adabiy-estetik xususiyatlari

Nemis ma'rifatchiligi. Milliy birlik g'oyasi. I.Kantning «Erkin tafakkur» falsafasi. Fixtening sub'ektiv idealizmi. Gegel falsafasi. Uning «Ruh fenemenologiyasi» va «Mantiq ilmi» asarlari. Nemis klassik falsafaining asosi sifatida. Nemis ma'rifatparvar adiblari: Xristof Gotshed (1700-1766), Fridrix Gotlib Klobshok (1724-1803), Vinkelman (1717-1768), Lessing (1729-1781).

Nazariy-estetik asoslari: Volterning «Did saroyi», Didroning «Aktyor haqida paradoks» asarlari. Adabiyotda ijobji qahramon, ijtimoiy tarbiya, milliy madaniyat masalalari. Teatrchilik harakatlari: Volter, Didro, Monteske, Bomarshelar komedyalari. Sharq va G'arb ma'rifatchiligi masalasi.

Yevropa sentimentalizmi estetikasi

David Gartli, J.J.Russo, Jorj Berkli, David Yumlarning falsafiy qarashlari. Sentimental estetikaning o'ziga xos jihatlar. E.Yung, J.Tomson, L.Sternlar ijodi: «Qabriston she'riyati» istilohi va manbalari. "Sentimental sayyohat", "Jentlmen, Tristam Shendining hayoti va ko'rgan kechirganlari" sentimental asar sifatida. Gyotening «Yosh Verterning iztiroblari» asarida sentimental falsafa talqini.

XIX asr jahon adabiyotida romantizm muammosi

Yevropa romantizmining ikki ko'rinishi: idealistik va taraqqiy parvar romantizm. Ularning ijodida xalq va milliy birlik tamoyili. Klassitsizmga salbiy munosabat, nemis romantizmi: A.Shamiso, A.Gofman, aka-ukalar Grimlar. Ingлиз romantizmi: Bayron ijodi. Nemis romantizimida: «Ko'l mifiktabi» (Vordsvord, Sadti, Kolrij), inqilobiy romantizm (Bayron, Shelli), «London romantiklari» oqimlari. Amerika tarixiy romanchiligi. Fenimor Kuper ijodi romantizm va realizm sintezi.

Naturalizm adabiyoti muammosi

Naturalizm estetikasi asosida Ogyust Kont va Ippolit Ten falsafiy qarashlari yotishi. Shaxs faoliyatida biologik, genetik omillarning ustun qo'yilishi. Naturalistik badiiy tasvirning o'ziga xosliklari. Naturalistik adabiyot vakillari: aka-uka Gonkurlar, Emil Zolya ijodi.

Jahon adabiyotida realizm muammosi

Ijtimoiy-falsafiy asoslari. Fransuz realistik adabiyoti. P.Elyuar, M.Riffo, P.Shobbarlar ijodida «fojeiy gumanizm» motivlari. 50-yillar ispan adabiyotida «tremendizm» yo'naliishi: K.Seli, K.Laforet ijodi. Ispan «Yangi romanchiligi»:

X.Goytsolo, A.Matutelar ijodi. Beranje, Stendal, Merime, Balzak va Charlz Dikkenslar ijodida jamiyat va shaxs muammolarining badiiy talqini. XX asr birinchi yarmi Yevropa va AQSh tanqidiy realizm adabiyoti. Gi de Mopassan tanqidiy realizmi. Nemis adiblari Tomas Mann, Bernard Shouular ijodida relistik talqin tamoyillari. AQSh adabiyotida satira va humor. Mark Tven ijodi. Jek London ijodida Spenser va Nisshe falsafasi talqini. R.Rollan (Fransiya), Lui Aragon (Fransiya), E.Xeminguey, T.Drayzer, (AQSh), Anna Ziggers (Germaniya), Jeyms Oldrij (Angliya)lar ijodida ijtimoiy falsafiy, maishiy muammolarning yoritilishi.

Jahon modernizmi: falsafasi, ijtimoiy-psixologik omillari, yo'naliish va oqimlari

Modernizm estetikaning tarixiy ildizlari va ijtimoiy-falsafiy omillari. Jahon modernizmining adabiy, falsafiy yo'naliishlari: simvolizm, futurizm, dadaizm, syurrealizm, abstraksionizm, ekzistensializm, absurdizm. Fransuz modernizmi. Inson hayotining ekzistensial talqin etilishi. J.-P. Sartr, A.Kamyu, S. de Bouvarlar ijodi. 50-yillar fransuz «yangi romanii»: A.Rob-Griye, N.Sorrot, M.Byutor asarlari. Fransuz «absurd teatri»: E.Ionesko, S.Bekket, A.Adamovlar ijodi. 60-80-yillar ispan profronkist romanlari: B.Kassaesa, X.Goytsolo, A.Mushetilar ijodi. Ayres Merdok, Uilyam Goldinglar ingliz modern adabiyoti namoyondalari sifatida. Nemis modern adabiyotida metafizik falsafa asosida maydonga kelgan «metaadabiyot» (Ernst Yunger, Arno Shmid), fransuz modernizmi (Martin Valzer), freydizm qarashlarining badiiy talqinlari (S.Sveyg). AQSh modern adabiyoti: ekzistensializm, freydizm, dzen-buddizm g'oyalari: U.Stoyron, R. Elisson, D.Selenjer, U.Folknerlar ijodi. Postmodernizmning jahon adabiyotida tutgan o'rni. Madaniy-falsafiy omillari. Timoti Uenter va uning postmodernizmga doir qarashlari.

IV. Semenar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Semenar mashg'ulotlar talabalarda badiiy tahlil, ilmiy-nazariy muqoyosa, badiiy asarga problematik yondashuv malakasini shallantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ilmiy tadqiqotlar olib borish, tarixiy davrlar mohiyati, poetik o'ziga xosligini anglashda amaliy-nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Semenar mashg'ulotlarida talabalar jahon adabiyoti muammolari to'g'risida amaliy ko'nikma va malaka hosil qiladilar.

Semenar mashg'ulotlarini uysushtirish bo'yicha tavsiya qilinadigan taxminiy mavzular:

1. «Qadim Gretsiyaning afsona va miflari», «Hind miflari» asarlari tahlili.
2. Gomerning «Ilida» va «Odiseya» asarlarida mifologik syujetlarning o'rni.
3. Antik davr Sharq va G'arb lirkasi.
4. Qadim Yunon dramalari: «Shoh Edip», «Zanjirband Prometey», «Medeya».

5. «Rolland haqida qo'shiq» fransuz qahramonlik eposi-yevropa xalqlari qahramonlik eposlarning mukammal namunasi sifatida.
6. Dante ijodida sharq motivlari.
7. Servantes ijodida reallik va romantika uyg'unligi.
8. Shespir ijodida tragizmning o'rni.
9. Vilyamedyan, Baltasar Grasian va Kalderonlar ijodi tahlili.
10. Bualoning «Poetik san'at» asari.
11. Ispan adabiyotida xoslar va omma adabiyoti: Lope de Vega va Gongora ijodi.
12. Grimmelgauzen ijodida urush mavzusi talqini.
13. Kantring adabiy estetik qarashlari.
14. U.Folknerning "Qora musiqa" asarida tragik pafos.
15. A.Kamyu va absurd adabiyot muammosi.
16. F.Kafka ijodida "Absurd makon" muammosi.

V. Mustaqil ta'limdi va mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakklardan foydalanish tavsiya etiladi:

- amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik;
- seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik;
- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishslash;
- talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalilaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy ta'lim.

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni:

- Sharq va G'arb uyg'onishi: umumiy va xususiy jihatlar.
- Klassitsizm, sentimentalizm, ma'rifat-chilik, romantizm oqimlarining umumiy xususiyatlari.

- Realistik badiiy talqin va ijtimoiy voqelik munosabati.
- Modernizm: inson, jamiyat va muhit muammozi.

VI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил якунлари ва 2018 йил истиқболларига бағишлиланган мажлисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутки. // Халқ сўзи, 2018 йил 16 январь, №11.
2. Артаманов С.Д., и др. История зарубежной литературы XVII-XVIII в.в.-М., 1989.
3. Зарубежная литература XIX века.-М., 1989.
4. Зарубежная литература XX века.-М., 2000.
5. История зарубежной литературы: Сред. века, Возрождение.-М., 1988.
6. Тронский И.М. История античной литературы.-М.:Высшая школа, 1983.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Аристотель. Поэтика.-Т.,1980.
2. Афансьев А.Н. Дерево жизни.-М., 1982.
3. Голосовкер Я.Логика мифа.-М.,1987.
4. Жўракулов У.Худудсиз жилва.-Т., 2006.
5. Жўракулов У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Т., 2015.
6. История эстетики: Памятники мировой эстетической мысли. В пяти томах.-М., 1964-1970.
7. Комилов Н. Тафаккур карвонлари. – Т., 1999.
8. Конфуцианство в Китае.-М., 1982.
9. Мифы древней Индии.-М., 1975.
10. Рифтин Б.Л. От мифа к роману.-М., 1979.
11. Мелетинский Е.М. Поэтика мифа.-М.,1976.
12. Мифологии древнего мира.-М., 1977.
13. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб.-Т.,1997.
14. Қуронов Д., Раҳмонов Б. Ғарб адабий-танқидий тафаккури тирихи очерклари.-Т., 2008.

Internet saytlari

1. www.ziyonet.uz
2. www.edu.uz
3. www.o'zbek.adabiyoti.com.

4. www.ziyo.uz
5. www.Lib.ru
6. www.litera.ru.
7. www.Philologs.narod.ru.